

**XIVA XONLIGIDA KENGASH DEVON TARKIBI VA
FAOLIYATI**

Tafu Tarix 3-bosqich talabasi

Fayzullajonova Ruhshona

ruxshonafayzullajonova@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada Xiva xonligida Kengash (Devon)ning shakllanishi, uning tarkibi va faoliyati tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Ayniqsa, Muhammad Rahimxon I hukmronligi davrida Kengash (Devon)ning doimiy oliy davlat boshqaruv organiga aylanish jarayoni yoritiladi. Maqolada Kengash tarkibiga kirgan mansabdor shaxslar, uning ish tartibi hamda davlat boshqaruvidagi oʻrni ochib beriladi.

Kalit soʻzlar: Xiva xonligi, Kengash, Devon, Muhammad Rahimxon I, davlat boshqaruvi, mansabdorlar, markaziy hokimiyat.

Аннотация

В статье на основе исторических источников анализируются формирование, состав и деятельность Совета (Дивана) в Хивинском ханстве. Особое внимание уделяется периоду правления Мухаммад Рахимхана I, когда Совет (Диван) был оформлен как постоянный высший орган государственного управления. Рассматриваются состав Совета, его функции и порядок деятельности, а также его роль в системе управления государством.

Ключевые слова: Хивинское ханство, Совет, Диван, Мухаммад Рахимхан I, государственное управление, должностные лица, центральная власть.

Annotatsion

This article analyzes the formation, composition, and activities of the Council (Divan) in the Khiva Khanate based on historical sources. Special attention is paid to the reign of Muhammad Rahim Khan I, during which the Council (Divan) was established as a permanent supreme body of state administration. The article examines the composition of the Council, its functions, and working procedures, as well as its role in the state governance system.

Keywords: Khiva Khanate, Council, Divan, Muhammad Rahim Khan I, state administration, officials, centralized power.

Xiva xonligida davlat boshqaruvi tizimi ko'p asrlik tarixiy tajriba va an'analarga asoslangan bo'lib, unda kengash (devon) muhim o'rin egallagan. Kengash davlatning siyosiy, ma'muriy, sud va moliyaviy masalalarini muhokama qiluvchi va muayyan qarorlar qabul qiluvchi oliy boshqaruv organi sifatida faoliyat yuritgan. Ayniqsa, XIX asr boshlarida Muhammad Rahimxon I hukmronligi davrida Kengash (Devon) doimiy va markazlashgan oliy davlat organiga aylantirilib, uning tarkibi va faoliyati aniq tizim asosida yo'lga qo'yildi. Xiva xonligi tarixida Muhammad Rahimxon I (1806–1825) hukmronlik davri davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirish va takomillashtirish bilan alohida ajralib turadi. Ayniqsa, 1807-yilda yuz bergan dehqonlar qo'zg'oloni xonlikda mavjud boshqaruv mexanizmlarining yetarli emasligini ko'rsatib berdi va Muhammad Rahimxon I ni davlat siyosatini qayta ko'rib chiqishga undadi. Natijada u markaziy hokimiyatni mustahkamlashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirdi va oliy davlat boshqaruv organi sifatida "Oliy Kengash"ni joriy etdi.

Aslida, Xorazmda kengash asosida qaror qabul qilish an'analari avvaldan mavjud bo'lgan. Ilgari bunday yig'ilishlar "mashvarat" yoki "majlis" nomlari bilan atalib, ular doimiy emasligi hamda tarkibi davrga qarab o'zgarib turishi bilan ajralib turgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, Xiva xonligi asoschisi Elbarsxon muhim masalalarni hal etishda urug' oqsoqollari bilan

maslahatlashgan. Keyinchalik Abulg‘ozi Bahodirxon bu kengashlarning tartibini muayyan darajada takomillashtirgan. Qo‘ng‘irotlar sulolasi asoschisi Muhammad Amin ham “maxsus kengash”ga tayangan bo‘lsa-da, bu organ Avaz inoq (1790–1804) davrida tugatilgan edi. Muhammad Rahimxon I davrida esa Oliy Kengash doimiy, aniq vakolatlarga ega bo‘lgan oliy davlat organiga aylantirildi. U oliy va markaziy ijroiya boshqaruvini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslardan tashkil topgan bo‘lib, davlat hayotiga oid eng muhim masalalarni hal etishda asosiy rol o‘ynadi. Oliy Kengash yig‘ilishlari yil boshida va oxirida, shuningdek zarurat tug‘ilganda chaqirilgan. Odatda majlislar ish kuni yakunlanganidan keyin o‘tkazilgan. Xiva xonligiga tashrif buyurgan rus elchilari va sayyohlari Oliy Kengash faoliyati haqida qimmatli ma’lumotlar qoldirganlar. Jumladan, 1819-yilda Xivada bo‘lgan N. Muravyov Kengash (Devon) har juma kuni xon saroyining ko‘rinish xonasida chaqirilishini, unda o‘tgan haftadagi voqealar muhokama qilinib, ichki va tashqi siyosat masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilinishini qayd etadi. Kengashdan so‘ng esa “oxun xon” Xorazm ulamolari va ziyolilari bilan diniy va ilmiy suhbatlar o‘tkazgan.

1858-yilda Xivaga kelgan N. Ignatyev esa Kengash majlislari ko‘pincha ziyofat tarzida o‘tib, ba’zan kech tundan tonggacha davom etganini yozadi. Bu hol Oliy Kengash nafaqat rasmiy boshqaruv organi, balki siyosiy va ijtimoiy muloqot maydoni vazifasini ham bajarganini ko‘rsatadi. Majlis jarayonida fikr erkinligi tamoyili amal qilgan bo‘lib, har bir mansabdor shaxs muhokama qilinayotgan masala yuzasidan o‘z fikrini bildirish huquqiga ega bo‘lgan. Agar Kengash a’zolari yakdil qarorga kela olmasalar, so‘nggi qaror chiqarish huquqi xon ixtiyorida bo‘lgan. Shunga qaramay, ko‘pchilik fikri inobatga olingan va qarorlar muhokama asosida qabul qilingan. Oliy Kengash vakolat doirasi nihoyatda keng bo‘lib, xazina kirim-chiqimlari, harbiy yurishlar, tashqi mudofaa masalalari, shuningdek xon mamlakatdan uzoqda bo‘lgan paytda aholi arz-dodlarini ko‘rib chiqish kabi vazifalarni bajargan. Harbiy masalalarda

xon davlat manfaatlaridan kelib chiqib Kengash qarorini asoslagan, muftiy fatvo bergan va boshqa a'zolar o'z fikrlarini bildirgan. N. Muravyov Muhammad Rahimxon I ning Oliy Kengashni ta'sis etishini hokimiyatni mustahkamlash vositasi sifatida baholagan bo'lsa-da, bu jarayon markaziy boshqaruv tizimida muhim burilish bo'lganini inkor etib bo'lmaydi. Xon raislik qilgan Oliy Kengash qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organi vazifalarini birlashtirgan oliy institut sifatida faoliyat yuritgan. Unda devonbegi, qushbegi, mehtar, naqib, shayxulislom, qozi, mirob va boshqa nufuzli amaldorlar ishtirok etgan. Mazkur boshqaruv tizimi XIX asrning 70-yillarigacha deyarli o'zgarmagan holda saqlanib qoldi. Biroq 1873-yilda Xorazm xonligi Rossiya imperiyasi tomonidan yarim mustamlakaga aylantirilgach, chorizmning siyosiy tuzilmalari ustun mavqega ega bo'la boshladi va xon hamda Oliy Kengash vakolatlari keskin cheklab qo'yildi.

Xulosa qilib aytganda, Xiva xonligida Kengash (Devon) davlat boshqaruvining muhim bo'g'ini bo'lib, u siyosiy, ma'muriy va sud hokimiyatini amalga oshirishda asosiy rol o'ynagan. Ayniqsa, Muhammad Rahimxon I davrida Kengash doimiy oliy davlat organiga aylanishi xonlik tarixida muhim burilish bo'lib, markazlashgan va tartibli boshqaruv tizimining shakllanishiga zamin yaratgan.

Foydaganiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. Абулғозий Баҳодирхон. Шажараи турк. Масъул муҳаррир ва сўзбоши муаллифи Б. А. Аҳмедов. – Тошкент: Чўлпон. 1992.
2. Bekmuhammad U. Xorazm tarixidan sahifalar. Birinchi kitob. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2009.
3. Muhammad Yusuf Bayoniy. Shajaraiy Xorazmshohiy / So'zboshi N. Jumaxo'ja, I. Adizova. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994.
4. Madirimov X.R. Xiva xonligining davlat tuzumi va huquq manbalari. Yuridik fanlari nomzodi ... diss. - Toshkent, 2012.